

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

Sh.Amil, A.G.Sabirdinov	
XX asr o'zbek lirikasi va Oybek she'riyati	6
N.P.Farmonov	
Realistik va psixologik tasvir: "Girdob" romani qahramonlari misolida	14
N.A.Abdullayeva	
Gender leksik birliklarining lingvomadaniy ko'rinishlari	18
A.Eshniyazova	
Muallif konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari.....	22
Z.Q.Eshanova	
Istiqlol davri o'zbek she'riyatida xalq dostonlari sintezi	27
J.B.Sayidolimov, I.B.Xabibullayev	
"Qisasi rabg'uziy" ning struktur tuzilishi	33
I.B.Xabibullayev	
Badiiy adabiyotda oila mavzusining shakllanishi va rivoji	42
E.G'.Qurbonova	
Lutfiy lirikasida badiiy mazmun va irfoniy talqin uyg'unligi	47
U.S.Ochilov	
Stiven Kingning «It» va «Green mile» romanlarida magik realizmning badiiy talqini.....	52
G.M.Kirgizova	
Iqbol Mirzo she'rlarida band tizimlari	58
N.N.Sharipova	
Xamsanavislik an'anasi va unda Toshlijali Yahyobey "Gulshan ul-anvor" dostonining o'rni	63
S.A.Olimjonov	
"Uch og'ayni" romanida "yo'qotilgan avlod" tasviri	69
I.M.Jurayev, H.A.Jo'rayev	
"Temur tuzuklari" hamda "Boburnoma"da an'ana va vorisiylik.....	74

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova, K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o'rganishning nazariy asoslari.....	79
Sh.Sh.Uralova	
Ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlarining suffikslar yordamida hosil bo'lishi va ularning so'z yasash modellari.....	83
I.F.Porubay, F.R.Nishanova	
Zamonaviy global jamiyat sharoitlarida lingvomadaniy birliklarning rivojlanish omillarining tahlili...	90
M.S.Sayidazimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'lining bo'lishsizlik shaklini yasovchi ayrim vositalar	96
X.G'.Raximboyeva, M.G'.Matlatipova	
O'zbek tili iyerarxik korpusini yaratishda ma'lumotlar bazasini yig'ish, gaplarni annotatsiyalash va tokenlash jarayoni.....	100
Л.Мамедзаде	
Приемы рифмообразования в паремиологических единицах турецкого и азербайджанского языков.....	107
N.A.To'xtasinova	
Pretsedent nom, jumla va matnlarning mediamatn birliklari sifatidagi tadqiqi	113
Z.I.Akbarova	
Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan "Ahl" komponentli lug'aviy birliklarning nutq uslublari doirasida qo'llanilishi	118
Ё.М.Алтамишева	
Из истории изучения религиозных терминов в отечественной терминологии	121



UO'K: 811.512.133

**“PRETSEDENT NOM, JUMLA VA MATNLARNING MEDIAMATN BIRLIKLARI
SIFATIDAGI TADQIQI”****“ИЗУЧЕНИЕ ПРЕЦЕДЕНТНЫХ ИМЁН, ПРЕДЛОЖЕНИЙ И ТЕКСТОВ КАК ЕДИНИЦ
ТЕКСТА МЕДИА”****“A STUDY OF PRECEDING NAMES, SENTENCES AND TEXTS AS MEDIA TEXT
UNITS”****To'xtasinova Nargizaxon Abdurashid qizi** 

Andijon davlat pedagogika instituti, stajyor-o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada OAV, milliy til va milliy madaniyatning kesishuvi va bu nuqtada yangi lingvistik hodisa, ya'ni pretsedent birliklarning yuzaga chiqishi xususida fikr bayon etiladi. Pretsedent birliklarning o'zbek va jahon tilshunosligida o'rganilishi, uning nutqda pretsedent nom, pretsedent jumla hamda pretsedent matn shaklida reallashuvi, shuningdek, o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib o'tiladi. Keltirilgan har qanday ilmiy nazariyalar amaliy misollar orqali asoslab beriladi.

Аннотация

В статье рассматривается пересечение средств массовой информации, национального языка и национальной культуры, а также возникновение на этом этапе нового языкового явления, а именно прецедентных единиц. Будут рассмотрены вопросы изучения прецедентных единиц в узбекском и мировом языкознании, их реализация в речи в форме прецедентного имени, прецедентного предложения и прецедентного текста, а также их специфические особенности. Все представленные научные теории подкреплены практическими примерами.

Abstract

This article explores the intersection of media, national language, and national culture, highlighting the emergence of a new linguistic phenomenon — precedent units. It discusses the study of precedent units in Uzbek and global linguistics, their manifestation in speech as precedent names, precedent sentences, and precedent texts, along with their unique features. All theoretical concepts discussed are supported by practical examples.

Kalit so'zlar: OAV, mediamatn, pretsedent birlik, pretsedent nom, pretsedent jumla, pretsedent matn, milliy til, milliy ong, media muloqot.

Ключевые слова: СМИ, медиатекст, прецедентная единица, прецедентное имя, прецедентное предложение, прецедентный текст, национальный язык, национальное сознание, медиакommunikация.

Key words: media, media text, precedent unit, precedent noun, precedent sentence, precedent name, national language, national consciousness, media communication.

KIRISH

Jurnalistlar nutqini, shuningdek, OAVda namoyish etilayotgan ko'rsatuv va dasturlardagi mediamatnlarni tahlil qilish yangidan yangi medialingvistik birliklarni o'rganish ehtiyojini oshirib bermoqda. Ushbu tadqiqotimizning tahlil markazida “pretsedent birliklar” tushunchasi va uning mediamatnlar tarkibidagi o'rni, xalqning jonli muloqotiga kirib borish jarayonlari haqida so'z yuritamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

D.Xudoyberganova “Matnning antroposentrik tadqiqi” nomli monografiyasida “pretsedent” termini tilshunoslikda ilk bor Y.N.Karaulovning “Роль прецедентных текстов в структуре и функционировании языковой личности” mavzusidagi maqolasida qo'llanilganini [1: 87], ta'kidlaydi.

Y.N. Karaulov pretsedent birliklarni “ma'lum shaxsning o'ta shaxsiy xarakterdagi, ya'ni unga yaxshi tanish bo'lgan va uning keng doirasini, shu jumladan, uning o'tmishi va zamondoshlarini

ham qamrab oluvchi, va nihoyat, ushbu til sohibining diskursida qayta-qayta murojaat etiluvchi bilish va hissiy munosabatlarida juda ahamiyatli" birlik sifatida tavsiflaydi [2: 267].

Rus tilshunosligida muayyan til egalariga yaxshi tanish bo'lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so'z birikmalari, jumalar hamda matnlar pretsedent birliklar sifatida qayd etiladi [3].

Pretsedent birliklar – OAV: matbuot, radio, televideniye, ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo'lgan jumalarning xalqning jonli muloqotida aks etishi, shuningdek, tarixiy nomlar, shaxs nomlari ham pretsedent birlik sifatida tilda qayta jonlanishi mumkin.

O'zbek va jahon tilshunoslarining pretsedent birliklar masalasida olib borgan izlanishlariga nazar solsak, dastlab mashhur asarlar tarkibidagi sitatlar yoki asar qahramonlari nomlari, keyingi tadqiqotlarda esa kino, serial, multfilm qahramonlari, san'atkorlar, badiiy asar nomlari, tarixiy joy, tarixiy shaxslar nomlari ham pretsedent nom sifatida o'rganilayotganiga guvoh bo'lamiz.

Pretsedent birliklarni tasnif qilishda, asosan, uch ko'rinishni qayd etib o'tamiz:

- pretsedent nomlar;
- pretsedent jumalar;
- pretsedent matnlar.

M.Artikovaning "Pretsedent fenomenining lingvomadaniy tabiati" nomli maqolasida pretsedent turlaridan hisoblangan pretsedent nomlar – o'tmishda yoki hozirda qandaydir yuksak e'tirofga sazovor ishlarni amalga oshirgan mashhur kishilar bilan birga muayyan jamiyat a'zolarining barchasiga tanish bo'lgan joylarni ham nazarda tutishini aytib o'tgan [4].

V.A.Maslovaning fikriga ko'ra, muayyan millat vakillariga yaxshi tanish bo'lgan matnlar yoki voqealar bilan bog'liq bo'lgan shaxs nomlari pretsedent nomlar bo'la oladi [1: 88]. Masalan: Oblomov, Taras Bulba kabi [5: 53].

NATIJA VA MUHOKAMA

Kuzatishlar natijasida pretsedent nomlarini quyidagicha turkumlashtirishimiz mumkin:

1. Real shaxslarning nomlari:

a) *ijodkorlar*: Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Lutfiy, Pushkin.

b) *olimlar*: Eynshteyn, Nyuton, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Farobiy.

c) *san'atkorlar*: Kamoliddin Rahimov, Sherali Jo'rayev, Halima Nosirova, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Oxunjon Madaliyev, Muhriddin Xoliqov.

d) *sportchilar*: Mayk Tayson, Muhammad Ali, Ronaldo, Messi.

2. Tarixiy shaxslarning nomlari: Amir Temur, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi.

3. **Badiiy asar qahramonlari nomi:** Gamlet, Don Kixot, Alomatxon (temir xotin), Qoravoy, Otabek, Kumush, Layli, Majnun.

4. **Mifologik nomlar:** Alpomish, To'maris, Oybarchin, Shiroq, Afandi, Aldar ko'sa, Ram, Krishna.

5. **Kino, serial qahramonlari nomi:** O'lmas Koshshay, Nastinka, Zolushka, Karabas-barabas, Buratino, Qorabotir, Jumong, Jang Bogo, Tangem, Esmeralda, doktor Malaver, Melisiyo, Erkli Furo, Fantomas, Sherlk Xolms, Xurram Sulton, Jumavoy, Robinzon, O'rgimchak odam.

6. **Multfilm qahramonlari nomi:** Shifu, Panda, Qunduz amaki, Yalmog'iz kampir, Asteriks va Obeliks, Papay, Anpanman, Vinipux, Qimmat, Zumrad, Lolo, Pepe, Shrek.

Pretsedent nomlarni yosh jihatdan ham tahlil qilish mumkin. Bugungi kun yosh qatlami nutqidagi pretsedent nomlar: Gargamel, Venom, Marvel, Smurfetta, Zombi, Sonik, malika Safiya va h.k.

Xalq nutqida emotsional-ekspressivlikni, ta'sirchanlikni, nutqiy modallikni ta'minlash uchun xizmat qiluvchi pretsedent nomlar haqida fikrlar umumlashmasini qayd etish mumkin:

– kino, badiiy asarlar va multfilmlardagi pretsedent nomlar qarimaydi, lekin ishtimoiy tarmoqlardagi pretsedent nomlar vaqt o'tishi bilan eskirishi yoki yoddan chiqishi mumkin. Chunki uning o'rnini boshqa pretsedent nom egallaydi. Kino, multfilm, badiiy asarlar tili vaqtlar osha o'zgarmaydi va bundagi aynan mavjud pretsedent nomlar qayta efir yuzini ko'rishi yoki keyingi avlod tomonidan o'qilishi natijasida yangilanib boraveradi;

– pretsedent nomlar qaysi mamlakat vakili bo'lsa, o'sha millat, mamlakat tasviri shaxs tasavvurida paydo bo'ladi.

TILSHUNOSLIK

– eng birinchi qahramon nomi pretsedent nom bo'lib qoladi, undan keyin bunday shaxslar chiqsa-da, pretsedent birlik sifatida xalqning jonli nutqida ishlatilish ehtimoli juda kam bo'ladi;

– pretsedent birliklarni muloqotga olib kirishda nutq tempi, ohang, xatto yuz mimikalari ham o'zlashtiriladi.

Pretsedent birliklardan biri hisoblangan pretsedent jumlar ham xalqning jonli so'zlashuv uslubida faol qo'llaniladi. Mediamatn sifatida muloqotda keng qo'llaniladigan pretsedent jumlar til, madaniyat va media sohasining bir nuqtada kesishuvidan hosil bo'ladi. Negaki har bir foydalanuvchi mentaliteti, yoshi, jinsi, ijtimoiy tabiati, xarakter xususiyatidan kelib chiqqan holda bunday jumalarni muloqotga olib kiradi.

Televideniye orqali namoyish etilgan turli kino, serial, spektakllardagi ayrim mashhur jumlar tilimiz va ongimizga singgishib qolgan. Bunday birliklar barqaror birikmalar singari muloqot jarayonida nutqimizga tayyor olib kiriladi. Bu kabi pretsedent birliklarning nutqqa olib kirilishi so'zlovchi uzatayotgan axborotning yanada ta'sirchan va tushunarli bo'lishi uchun xizmat qiladi. Muloqot davomida bu kabi birliklarning qo'llanilishi do'stona muhit yaratilishiga ko'mak beradi [6: 543].

Necha yillar mobaynida televideniye orqali uzatilgan filmlardagi mashhur jumlar xalqning lisoniy xotirasidan joy olib, axborot-almashinuv paytida bildirilayotgan fikrning tasdig'i, so'zlovchi axborotiga nisbatan ishonch yoki ishonchsizlik, hurmat, kesatq kabi ma'nolarni ifodalashda foydalanib kelingan. Tinglovchi ayni paytda bunday pretsedent birliklarni nutq vaziyatiga qarab qaysi ma'noda qo'llanilayotganini payqab olishi mumkin. Asosan, bu kabi lisoniy birliklarning nutq jarayoniga olib kirilishi muloqotdoshlar kayfiyatining ko'tarilishiga, hazil-mutoyibaning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. E'tiborli tomoni shuki, turli film, kino, serial, spektakllar bilan yonma-yon ravishda multfilmlardagi ayrim jumlar ham pretsedent birliklar sifatida iste'molda qo'llanilib keladi. Multfilm tomosha qiluvchilar doirasi yosh jihatdan chegaralangan bo'lsa-da, ulardagi ba'zi gaplar, jumlar kattalar nutqiga ham o'rnameyib, barqarorlashib qolgan [6: 543].

Pretsedent jumlarning muloqotga o'zlashtirilish tasnifini quyidagicha keltirib o'tamiz:

1. Film, seriallardagi ayrim jumalarning muloqotda keng qo'llanilishi: *“Abdullajon, shakarsan, shakar” (“Abdullajon” filmi), “O'nta qo'y nima bo'ladi?”, “Ana syurpriz-u mana syurpriz, ana kir yuvadigan mashina-yu mana televizor”, “O'g'lim, ovqatingni yemaysami?” (“Mahallada duvdud gap” filmi), “Uf, choy-choy, buncha ko'p choy ichishadi bular” (“Suyunchi” filmi), “Shpionlar haqida gaplashyapmiz” (“Kelinlar qo'zg'oloni” filmi), “Siz, o'shami?” (“O'tkan kunlar” filmi), “Ko'zlarimni yumdim, seni ko'rmoqlik uchun” (“Shabnam” filmi), “Zabardast, baquvvat ekansiz” (“Kichkina tabib” filmi), “Topni biz tomonga tepmaysanmi, biz yorib tashamaymizmi, yutuq senda qolmaydimi?”, “Onamdan qolgan toshoyna qani?” (“Uchrashuv” filmi), “Nortoy, qo'rqma, men sen bilanman”, “Ochbiqiniga tep, Nortoy” (“Chinor ostidagi duel”), “Daryo toshqin, suvlar to'lqin, o'tolmayman, yor-yor”, “Endi bildim, yeyish kerak”, “Xo'sh, innankeyinchi” (“Shum bola” filmi), “Seniyam davolashadi, meniyam davolashadi”, “Iltimos qilaman, basharamga til tekkizma!” (“Ivan Vasilevich kasbini o'zgartiradi”), “Iltimos, sekinroq gapirsangiz, yozib olay”, “Bambarbiya, kelkinu” (“Kavkaz asirasi”), “Ishlamagan tishlaydi, o'rgan, student”, “Imtihon men uchun hamisha bayram”, “Yashash yaxshi, yaxshi yashash undan ham yaxshi”, “Qani, piyonista, tekintomoq, bezori grajdanlar” (“BI” operatsiyasi va Shurikning yangi sarguzashtlari” filmi).*

2. Qiziqchilar nutqi va qo'shiq matni tarikidagi jumalarning muloqotda qo'llanilishi: *“Sen ketmon bilan beliga solasan, men oyog'iga o'roq bilan solaman”, “Yerni chuqurroq haydaganligimiz uchun”, “Ob-havoning noqulay kelganligi tufayli”, “Svilizatsiya bor, mexanizatsiya bor, vulkanizatsiya bor”, “Vasvasagin”, “Chakagagin”, “Antijag” (Hojiboy Tojiboyev), “Men o'zimni sevaman, menga o'zim yoqadi” (Tohir Mahkamov).*

3. Multfilmlardan muloqotga ko'chgan pretsedent jumlar: *“Alvastijon, qayerdasan, yer yutgur” (“Hurmattalab Alvasti”), “Do'stlar, kelinglar, ahil, inoq yashaylik” (“Leopoldning xazinasi”), “Qanday go'zal bu olam, bir qara” (“Daydi To'tining qaytishi”), “Haligi, sichqonlarning nikoh to'yi haqidagisi bor-ku” (“Qunduz amaki qissalari”), “Aytgandim-a, shu tepalikka chiqmaylik deb” (“G'aroyib sayohat”), “Anpanman, Anpanman, sensan bizning qahramon” (“Anpanman”), “Bu yomg'irdan keyin sening sigiring rosa bolalaydi”, “Vasiliy...Vasiliy...Vasya” (“Daydi to'tining qaytishi”), “Alvastijon, qayerdasan, qorang o'chgur”, “Qo'rqsa, hurmat qiladi”, “Ivanushkani bilasan-a? Haligi Alyonushkaning ukasini” (“Hurmattalab Alvasti”), “Sovuqmi? Judayam sovuq” (“Qizcha va*

quyonchalar”), “Leopold, buyoqqa chiq, buyoqqa chiq, yaramas qo’rqoq” (“Leopoldning xazinasini”), “Qay yurtlarda bo’ldingiz, So’ylang, nelar ko’rdingiz?” (“Shoh Saltan haqida ertak”), “Qornim to’ydi, endi yotib uxlayman” (“Zumrad va Qimmat”) [6: 544], “Hy nozodu! (Senimi shoshmay tur)”.

4. Facebook, Instagram, Telegram messenjerlari hamda You Tube platformasi orqali namoyish etilgan video materiallaridan muloqotga kirib kelgan pretsedent jumlar: “I want to be how are you?”, “Akang kuchaydi uje”, “Qora oq bo’lib, oq qora bo’lib ko’rinsachi?”, “Nexia 2 legenda”, “Nima bu-u-u, nimasan sa-a-an”, “Yashamaylik ekan-da”, “Ha, otam”, “Bormi og’riq?”, “Nima bo’lyapti?”, “Muhimi qalb go’zalligi”, “Haliyam yosh bolasiz-da, Umidjon”, “Jonim bolam, qoch!”, “Jonim, men ham o’zgardim, lekin o’zgasiga ketmadim”, “Auf-f”, “Alamlar, qiynaydi meni alamlar”, “Tugadi”, “Mazzami silarga mazzami?”, “Azoblash xizmati”, “E-e-e, o’l, chuchchi”, “Parvardacham”, “Necha pul bo’lyapti?”, “Menda u”, “Hammasiga kulib qo’ydim”, “Lekin jigaringa tekkizolmadi-yu”, “Qizlarning yuragini o’g’irlayman-u” va boshqalar.

“Oyina.uz” portalining rasmiy sahifalaridan birida aynan mana shunday ijtimoiy tarmoqlarda mashhur bo’lgan va tez-tez yangilanib turadigan jumalarning qisqacha tarixi hamda uning ishtirokchilari haqida qiziqarli materiallar taqdim etilgan. “Er o’zi nimaga kerak?”, “Dunyo sening tog’angmas”, “O’zbekiston tengdir O’zbekistonga!” – Internetdagi trend iboralar sharhi” (25.03.2023), shuningdek, “1000 so’mdan, akajonlar...” , “Ko’rsating Sherbekligingizni”, “Nosni kayfiday kayf” – Internetdagi trend iboralar sharhi” (2-qism) (09.06.2023) sarlavhasi ostidagi maqolada “Bugungi kunda trend shohsupasiga chiqish uchun olamshumul ish qilish shart emas. Shunchaki noodatiy xatti-harakat, kutilmagan intervyu yoki tasodifiy vaziyatlar sabab bir kunda yulduz bo’lib uyg’onish mumkin. Siz shunchaki “qilar ishni qilasiz” va butun jamiyat, internet faollari, blogerlar sizning piaringiz bilan shug’ullanadi.

Avvallari e’tiborga tushish uchun ijod ahli uzoq izlanardi, falon pul to’lab efirlarni band qilardi... Bugun bu “formula” o’zini oqlayotgani yo’q” [7] deya fikr-mulohazalar bildirilgan. Ushbu maqolada “Biz bilgandik, biz kutgandik”, “Dunyo seni tog’angmas”, “Lolitto, kuyib o’l, dushman”, “Men Tursunxonman, sog’ bo’lasla”, “Yangi O’zbekiston strategiyasi”, “O’zbekiston tengdir, O’zbekistonga!”, “Suvning ta’mi muz bilan”, “Er o’zi nimaga kerak?” [8], “Vapshe malades”, “Ko’rsating Sherbekligingizni”, “Sen bir yaxshilik qilmagin ekan”, “Videoni ko’rsating, aka”, “1000 so’mdan akajonlar”, “Viyu...Viyu...Varr...”, “Nosni kayfiday kayf”, “Semiz bo’lsada... Mazzada...” [7] singari tasodifiy yoki atayin mashhurlikka erishish uchun qilingan ayrim xatti-harakatlar va ulardagi nutqiy birliklarga izohlar berib o’tilgan.

Ijtimoiy tarmoqlarda bu kabi mashhurlikka erishgan jumalarni ayrim xususiyatlariga ko’ra quyidagicha farqlashimiz mumkin:

- atayin kulgi qo’zg’atish uchun qilingan hazillar;
- tasodifiy vaziyatlarda aytilgan jumlar;
- mantiqsiz, asossiz va o’rinsiz gaplar;
- inson hissiyatini qo’zg’atuvchi jumlar;
- ijtimoiy muammolarni ko’tarib chiquvchi iboralar.

Kino, serial, badiiy asarlardan nutqiy jarayonga kirib kelgan yuqoridagi kabi pretsedent jumlar jamiyatning barcha ijtimoiy qatlami nutqida keng qo’llaniladi. Biroq ijtimoiy tarmoqlarda tasodifiy voqeliklarning tez-tez namoyon bo’lishi, ayrim qisqa videolardagi nutqiy birliklarning yangidan yangi bo’yoq kasb etib borishi natijasida birining o’rnini boshqa pretsedent jumlar egallab boraveradi. Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlardan nutqqa kirib kelgan bu kabi birliklarning nutqiy vaziyatlarda uzoq muddat davomida yashab qolish ehtimoli juda kam bo’ladi.

Pretsedent birliklarning yana bir ko’rinishi pretsedent matn shaklida bo’lib, u ukrainalik tilshunos Merkotan Lesia Yosypivna fikricha, “tilshunos olimlarning (Y.Karaulov, D.Gudkov, V.Krasnix, G.Slyshkin) ilmiy yutuqlarini hisobga olgan holda, pretsedent matn – bu pretsedent nom va pretsedent holat bilan bog’lanish jarayonida til shaxsi uchun hissiy va kognitiv jihatdan ahamiyatli bo’lgan matn [9]” hisoblanadi.

O.V.Lisochenko esa “pretsedent matn” tushunchasiga quyidagicha izoh beradi: “Pretsedent matn “adabiy yoki boshqa voqelikda mavjud bo’lgan va u yaratgan matnda ma’ruzachi yoki yozuvchining xotirasida saqlanadigan ma’lum bir matn” [10].

Shuningdek, Y.N.Karaulov “Birdan ortiq shaxsga tegishli bo’lgan, ularning bilish va hissiy munosabatlarida u yoki bu shaxs uchun ahamiyatli bo’lgan, ya’ni mashhur shaxs bilan aloqador

TILSHUNOSLIK

odamlarga juda yaxshi tanis bo'lgan va nihoyat, til egalari diskursida qata-qayta murojaat qilinadigan matnlar [11: 216]ni pretsedent matnlar sifatida baholaydi.

Jonli muloqotda pretsedent matnlardan ham keng foydalanamiz. Ikki yoki undan ortiq jumllarning nutqiy vaziyatda bir o'rinda barqaror birikma singari reallashishi va kino, serial, badiiy asar yoxud ijtimoiy tarmoqlardagi tayyor nutqiy qoliplarning nutqqa kirib kelishi pretsedent matnlarning voqelanishiga asos bo'ladi. Masalan, muloqotda ko'p qo'llanuvchi va nutqning emotsional ta'sir kuchini oshiruvchi, tomonlar o'rtasidagi aloqani yumshatuvchi ayrim pretsedent matnlardan namunalar keltirib o'tamiz:

- *Nima deyapti?*
- *Otamni uylantiraman deydi.*
- *Nima deyapti?*
- *Otamni uylantiraman deydi.*
- *E-e, buncha baqirasane-e, bo'ldi-da, tushundim-da e-e!*
- *E-e, tushunmasangiz nima qilay endi-e-e! ("Chinor ostidagi duel" filmi).*

"Sizga yana nima kerak? Bir qarich til kerakmi? ...Akasiga tor shim, singlisiga kalta yubka, o'lgan buvisiga yangi kafan, otasiga aroq zavodi, onasiga kampir zavodi, opasiga kiyim fabrikasi, sizga zambarakni o'qi...paq" ("Uchrashuv" filmi).

- *Xo'sh.*
- *Nima xo'sh?*
- *Ikki qo'ling bo'sh, ahmoq ("Suyunchi filmi").*

XULOSA

Ko'rishimiz mumkinki, o'zbek tilining lisoniy imkoniyatlari shu qadar keng bo'lib, pretsedent birliklar til egalari tafakkuri va nutqida barqarorlashgan lingvistik birlik sifatida til tizimidagi kichik bir tizimni hosil qilmoqda. Milliy til, milliy madaniyat, mentalitetga xos bu kabi birliklarning lisoniy tahlillarini ko'paytirish, shuningdek, bu mavzuga doir qiziqarli va asosli materiallarni yig'ish ko'plab tilshunoslarni mavzu doirasiga birlashtira olishi shubhasiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Худойбергенова Д. Матнинг антропоцентрикти. –Т.:Фан, 2013. – Б. 87.
2. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. –М.: Наука, 1987. – С. 267
3. Красных В.В., Гудков Д.Б., Захаренко И.В., Багаева Д.В. Прецедентные феномены в лингвистике // Вестник Московского университета. Серия 9. Филология; Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987; Маслова В. Лингвокультурология. Учеб. пособие. – М.: Academia, 2001.
4. Артикова М. Прецедент феноменининг лингвомаданий табиати// Ўзбекистонда хорижий тиллар, 2021, № 3 (38), 78-92.
5. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – С. 53
6. To'xtasinova N. Mediamuloqot lingvokulturologik obyekt sifatida // NamDU Ilmiy axborotnomasi. 2024. – B. 543.
7. <https://oyina.uz/uz/article/1692> (Murojaat sanasi: 21.03.2025)
8. <https://oyina.uz/uz/article/1487> (Murojaat sanasi: 22.03.2025)
9. [file:///C:/Users/User/Downloads/precedent-texts-of-the-19th-century-in-the-discourse-of-modern-ukrainian-prose%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/User/Downloads/precedent-texts-of-the-19th-century-in-the-discourse-of-modern-ukrainian-prose%20(1).pdf) [Elektron manba] (Murojaat sanasi: 22.03.2025)
10. Лисоченко, О.В. Риторика для журналистов: прецедентность в языке и в речи/О.В Лисоченко. – Ростов-на-Дону, 2007.
11. Караулов Ю.Н. Язык и личность. – М., 1989. – С. 216.
12. To'xtasinova N. (2024). Internet muloqotida kreolashgan matnlarning lingvokulturologik xususiyatlari // Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(3), 197-200.
13. To'xtasinova, N. (2024). Mediamuloqotga qadar bo'lgan davr: til va yozuv masalasi // Talqin va tadqiqotlar. Impact Factor: 8.2 | № 11(48) 31.05.2024.